

**AYOLLARGA NISBATAN ZO‘RAVONLIK UCHUN JAVOBGARLIK  
MASALALARI: MILLIY VA XALQARO-HUQUQIY TAHLIL**

**Bo‘ronova Maftuna Shaymardon qizi**

**Termiz davlat universiteti Yuridik fakulteti 1-bosqich talabasi**

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada ayollarga nisbatan zo‘ravonlikning huquqiy mohiyati, uning turlari hamda bunday harakatlar uchun belgilangan javobgarlik masalalari milliy va xalqaro huquq normalari asosida tahlil qilinadi. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda xotin-qizlarni himoya qilish borasida amalga oshirilgan islohotlar, xususan, himoya orderi instituti, jinoyat-huquqiy javobgarlikning kuchaytirilishi hamda inson huquqlarini ustuvor qadriyat sifatida mustahkamlash jarayonlari yoritib beriladi. Shuningdek, muammo yuzasidan mavjud amaliy kamchiliklar va ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ilgari suriladi.

**Kalit so‘zlar:** Ayollarga nisbatan zo‘ravonlik, javobgarlik, himoya orderi, inson huquqlari, jinoyat-huquqiy javobgarlik, gender tenglik, oilaviy zo‘ravonlik, huquqiy himoya.

**Abstract:** This article analyzes the legal nature of violence against women, its types, and the issues of liability established for such acts on the basis of national and international legal norms. In recent years, the reforms implemented in Uzbekistan to protect women are highlighted, in particular the introduction of the protection order institution, the strengthening of criminal liability, and the process of consolidating human rights as a priority value. Furthermore, existing practical shortcomings regarding this issue and proposals for their elimination are presented.

**Keywords:** Violence against women, liability, protection order, human rights, criminal liability, gender equality, domestic violence, legal protection.

**Аннотация:** В данной статье анализируются правовая сущность насилия в отношении женщин, его виды, а также вопросы ответственности за такие деяния на основе норм национального и международного права. Освещаются реформы, реализованные в последние годы в Узбекистане в сфере защиты женщин, в частности институт охранного ордера, усиление уголовной ответственности, а также процесс закрепления прав человека как приоритетной ценности. Кроме того, рассматриваются существующие практические недостатки по данной проблеме и предлагаются пути их устранения.

**Ключевые слова:** Насилие в отношении женщин, ответственность, охранный ордер, права человека, уголовная ответственность, гендерное равенство, домашнее насилие, правовая защита.

**Özet:** Bu makalede kadınlara yönelik şiddetin hukuki mahiyeti, türleri ve bu tür fiiller için öngörülen sorumluluk meseleleri, ulusal ve uluslararası hukuk normları temelinde analiz edilmektedir. Son yıllarda Özbekistan’da kadınların korunması alanında gerçekleştirilen reformlar, özellikle koruma emri kurumu, ceza sorumluluğunun güçlendirilmesi ve insan haklarının öncelikli bir değer olarak pekiştirilmesi süreci ele alınmaktadır. Ayrıca, konuya ilişkin mevcut uygulama eksiklikleri ve bunların giderilmesine yönelik öneriler sunulmaktadır.

**Anahtar Kelimeler:** Kadınlara yönelik şiddet, sorumluluk, koruma emri, insan hakları, cezai sorumluluk, toplumsal cinsiyet eşitliği, aile içi şiddet, hukuki koruma.

### **Kirish**

Zamonaviy jamiyat taraqqiyoti inson huquq va erkinliklarining real ta’minlanishi bilan o’lchanadi. Davlatning demokratikligi, uning huquqiylik darajasi, eng avvalo, inson sha’ni va qadr-qimmatiga bo’lgan munosabatida namoyon bo’ladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, ayollarga nisbatan zo’ravonlik masalasi nafaqat ijtimoiy muammo, balki huquqiy davlatning sinov mezonidir. Ayollarga nisbatan zo’ravonlik – bu alohida shaxsga qaratilgan harakat bo’lishi bilan birga, butun jamiyatning ma’naviy va huquqiy muhitiga salbiy ta’sir ko’rsatuvchi hodisadir. Zo’ravonlik sodir etilgan har bir holatda insonning konstitutsiyaviy huquqlari – yashash, erkinlik, daxlsizlik, sha’n va qadr-qimmat huquqlari buziladi. Ayniqsa, oilaviy munosabatlar doirasida sodir etiladigan zo’ravonlik jamiyat uchun yanada xavflidir, chunki u ko’pincha yashirin kechadi va jabrlanuvchi o’z huquqlarini himoya qilish imkoniyatidan mahrum bo’ladi. Huquqiy demokratik davlat tamoyillariga ko’ra, inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni va qadr-qimmat oliy qadriyat hisoblanadi. Bu prinsip yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida yanada mustahkamlandi. Konstitutsiyada hech kim qiynoqqa, zo’ravonlikka, shafqatsiz yoki inson qadrini kamsituvchi muomalaga duchor etilmasligi qat’iy belgilangan. Mazkur norma ayollarga nisbatan zo’ravonlikka qarshi kurashning konstitutsiyaviy asosini tashkil etadi.

So’nggi yillarda O‘zbekistonda xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, gender tenglikni ta’minlash, oilada sog‘lom muhitni shakllantirish borasida tizimli islohotlar amalga oshirildi. Ayollarga nisbatan zo’ravonlikni alohida huquqbuzarlik sifatida e’tirof etish, himoya orderi institutining joriy etilishi, javobgarlik choralaring kuchaytirilishi davlat siyosatining ustuvor yo’nalishlaridan biriga aylandi. Biroq

qonunchilik bazasining mavjudligi muammoning to'liq hal etilganini anglatmaydi. Amaliyotda uchrayotgan muammolar, jabrlanuvchilarning murojaat qilishdagi ikkilanishi, ijtimoiy stereotiplar va huquqiy madaniyat darajasi masalani chuqur ilmiy tahlil qilishni taqozo etadi.

Shu bois mazkur maqolaning maqsadi – ayollarga nisbatan zo‘ravonlik uchun javobgarlik masalalarini milliy va xalqaro huquq normalari asosida tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish yuzasidan ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishdan iboratdir.

### **Asosiy qism**

Ayollarga nisbatan zo‘ravonlik masalasi huquqiy jihatdan murakkab va ko‘p qirrali hodisa bo‘lib, u shaxsning konstitutsiyaviy huquqlariga bevosita tajovuz sifatida namoyon bo‘ladi. Zo‘ravonlikning ijtimoiy xavfliligi shundaki, u nafaqat jabrlanuvchining jismoniy yoki ruhiy holatiga zarar yetkazadi, balki jamiyatda qo‘rquv, beqarorlik va tengsizlik muhitini shakllantiradi. Huquqiy davlat tamoyillariga ko‘ra inson, uning hayoti, sha’ni va qadr-qimmatini oliy qadriyat hisoblanadi. Shu ma’noda yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi insonning daxlsizligi, qiynoqlardan va zo‘ravonlikdan himoyalani huquqini kafolatlaydi hamda davlat zimmasiga bu huquqlarni real ta’minlash majburiyatini yuklaydi.

Ayollarga nisbatan zo‘ravonlik jins belgisi asosida sodir etiladigan va jismoniy, ruhiy, jinsiy yoki iqtisodiy zarar yetkazishga qaratilgan harakatlar majmui sifatida namoyon bo‘ladi. Amaliyotda zo‘ravonlik ko‘pincha oilaviy munosabatlar doirasida sodir etiladi, bu esa uni aniqlash va huquqiy baho berishni murakkablashtiradi. Jabrlanuvchining iqtisodiy qaramligi, ijtimoiy stereotiplar, “oilani saqlab qolish” tushunchasining noto‘g‘ri talqini ko‘plab holatlarda murojaat qilishdan tiyilishga sabab bo‘ladi. Natijada zo‘ravonlik yashirin tus oladi va takroriy xususiyat kasb etadi.

Mazkur sohada huquqiy tartibga solish tizimli xarakterga ega. 2019-yilda qabul qilingan Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risidagi Qonun zo‘ravonlik tushunchasini aniq huquqiy kategoriya sifatida mustahkamladi, tazyiq va zo‘ravonlikning jismoniy, ruhiy, iqtisodiy hamda boshqa shakllarini belgilab berdi. Qonun bilan himoya orderi instituti joriy etildi, bu esa zo‘ravonlik sodir etgan shaxsga nisbatan ma’lum cheklovlar qo‘llash orqali jabrlanuvchini tezkor himoya qilish imkonini yaratdi. Himoya orderi zo‘ravonlikning takrorlanishining oldini olishga qaratilgan profilaktik huquqiy vosita bo‘lib, uning samaradorligi tezkorlik va majburiylik bilan belgilanadi.

Zo‘ravonlikning og‘irroq shakllari uchun jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida qasddan badanga shikast yetkazish,

qiynash, zo‘rlash, jinsiy erkinlikka qarshi jinoyatlar, tahdid va majburlash kabi harakatlar uchun qat’iy jazo choralarini belgilangan. So‘nggi yillarda oilaviy zo‘ravonlikni alohida huquqbuzarlik sifatida e’tirof etish va javobgarlikni kuchaytirish yo‘lidagi o‘zgarishlar jinoyat-huquqiy siyosatning inson huquqlarini ustuvor qo‘yishga yo‘naltirilganini ko‘rsatadi. Jinoiy javobgarlikning muqarrarligi prinsipi zo‘ravonlikka nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma‘muriy javobgarlik mexanizmlari ham zo‘ravonlikka qarshi kurash tizimining tarkibiy qismi hisoblanadi. Ayrim hollarda huquqbuzar ma‘muriy tartibda javobgarlikka tortiladi, bu esa profilaktik ta‘sir chorasi sifatida qo‘llaniladi. Biroq amaliy tajriba ma‘muriy choralar har doim ham yetarli darajada ogohlantiruvchi ta‘sir ko‘rsatmasligini ko‘rsatmoqda. Zo‘ravonlikning takroriy sodir etilishi jazolash bilan bir qatorda tuzatish va psixologik rehabilitatsiya mexanizmlarini ham joriy etish zaruratini yuzaga keltiradi.

Xalqaro huquq normalari ham ayollarga nisbatan zo‘ravonlikni inson huquqlarining buzilishi sifatida baholaydi. O‘zbekiston CEDAW Konvensiyasiga qo‘shilgan bo‘lib, mazkur hujjat davlat zimmasiga ayollarga nisbatan kamsitish va zo‘ravonlikning barcha shakllarini bartaraf etish majburiyatini yuklaydi. Konvensiya talablariga muvofiq, davlat nafaqat jazolash choralarini, balki profilaktika, himoya va rehabilitatsiya mexanizmlarini ham yaratishi lozim. Milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga uyg‘unlashtirish jarayoni ayollar huquqlarini himoya qilish sohasidagi siyosatning izchil rivojlanayotganini ko‘rsatadi.

Amaliyotda muammoli jihatlar saqlanib qolmoqda. Zo‘ravonlik faktlarining yashirinligi, dalillarni to‘plashdagi murakkabliklar, ijtimoiy bosim, yarashtirishga majburlash holatlari huquqni qo‘llash samaradorligiga ta‘sir ko‘rsatadi. Ayrim hollarda jabrlanuvchi arizani qaytarib olishi yoki ko‘rsatma berishdan bosh tortishi jinoyat ishini yuritishni qiyinlashtiradi. Bu esa zo‘ravonlikning takroriy tus olishi xavfini oshiradi. Shu bois huquqni qo‘llash amaliyotida jabrlanuvchining manfaatlarini ustuvor qo‘yish, uning xavfsizligini ta‘minlash va ikkilamchi viktimologiyani oldini olish muhimdir.

Zo‘ravonlikka qarshi kurash faqat jazolash mexanizmlariga tayanmasligi kerak. Iqtisodiy mustaqillikni ta‘minlash, ayollar bandligini oshirish, bepul yuridik yordam va psixologik maslahat xizmatlarini kengaytirish zo‘ravonlikka barham berishda muhim omillardan biridir. Huquqiy madaniyat va gender tenglik g‘oyalarini keng targ‘ib qilish orqali jamiyat ongida zo‘ravonlikka nisbatan murosasiz munosabat shakllantiriladi. Huquqiy norma faqatgina jamiyat ongida qabul qilingan va qo‘llab-quvvatlangan taqdirdagina real himoya vositasiga aylanadi.

**Xulosa**

Xulosa qilib aytganda, ayollarga nisbatan zo‘ravonlik – bu shunchaki oilaviy kelishmovchilik emas, balki inson huquqlarining qo‘pol ravishda buzilishi hisoblanadi. Har qanday zo‘ravonlik holatida ayolning sha‘ni, qadr-qimmat va erkinligi zarar ko‘radi. Huquqiy davlatda esa inson manfaatlari hamma narsadan ustun turishi kerak. Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi ham aynan shu tamoyilni mustahkamlaydi.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda ayollarni himoya qilish borasida muhim huquqiy asoslar yaratildi. Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risidagi Qonun qabul qilindi, himoya orderi instituti joriy etildi, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida javobgarlik kuchaytirildi. Bu o‘zgarishlar davlatning masalaga jiddiy yondashayotganini ko‘rsatadi. Shuningdek, CEDAW Konvensiyasiga qo‘shilganimiz ham xalqaro majburiyatlarimizni tasdiqlaydi.

Lekin faqat qonun bilan muammoni to‘liq hal qilib bo‘lmaydi. Eng muhim jihat – bu jamiyat ongini o‘zgartirishdir. Ayolni hurmat qilish, uning huquqlarini tan olish, zo‘ravonlikka nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish – barqaror va adolatli jamiyat qurishning asosiy shartidir.

Menimcha, ayollarga nisbatan zo‘ravonlikka qarshi kurashish har birimizning fuqarolik burchimizdir. Chunki adolatli jamiyat faqat qonun bilan emas, balki insoniylik va ongli yondashuv bilan barpo etiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: Rasmiy nashr.
2. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. – Amaldagi tahrir.
3. Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida. – 2019-yil 2-sentabr.
4. CEDAW (Convention on the Elimination of All Forms of Discrimination against Women). – 1979-yil.
5. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining sud amaliyotiga oid qarorlari.
6. O‘zbekiston Respublikasi Inson huquqlari bo‘yicha Milliy markazi materiallari.
7. Gender tenglik va ayollar huquqlarini himoya qilishga oid ilmiy maqolalar va tahliliy materiallar.
8. Xalqaro inson huquqlari hujjatlari to‘plami. – Toshkent: Adolat nashriyoti.
9. Ayollar huquqlarini himoya qilishga oid zamonaviy huquqiy tadqiqotlar va ilmiy adabiyotlar.
10. Jinoyat-huquqiy siyosat va oilaviy zo‘ravonlikka qarshi kurash masalalariga oid monografiyalar.